

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING  
QARORI**

**JIZZAX POLITEXNIKA INSTITUTINING ARXITEKTURA VA QURILISH SOHASIDA  
KADRLARNI TAYYORLASH, QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI  
OSHIRISHGA DOIR FAOLIYATINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH CHORA-  
TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA**

Jizzax viloyatining ishlab chiqarish va qurilish tarmoqlari uchun malakali mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish orqali mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash, Jizzax erkin industrial zonasida zamonaviy texnologiyalar asosida barpo etilgan korxonalar uchun yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashni tizimli yo'lga qo'yish, respublika hududlarida arxitektura va qurilish sohasi xodimlari kasb darajasi va malakasini zamonaviy talablarga muvofiq muntazam oshirib borish tizimini joriy etish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi, Moliya vazirligi va Davlat arxitektura va qurilish qo‘mitasining Jizzax politexnika instituti tarkibida arxitektura va qurilish fakultetini hamda mazkur fakultet tarkibida yuridik shaxs maqomisiz arxitektor-loyihachilar va quruvchilarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish mintaqaviy markazini (keyingi o‘rinlarda Markaz deb ataladi) tashkil etish to‘g‘risidagi taklifiga rozilik berilsin.

2. Quyidagilar Markazning asosiy vazifalari etib belgilansin:

arxitektor-loyihachilar va quruvchilarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish; arxitektura va qurilish sohasida yuqori malakali kadrlarni tayyorlash bo‘yicha ilg‘or xalqaro tajribani o‘rganish asosida arxitektor-loyihachilar va quruvchilarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kurslarining o‘quv rejalari va dasturlarini ishlab chiqish;

arxitektura va qurilish sohasidagi innovatsiyalarni qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlariga tatbiq etish, mutaxassislarning loyihalash va qurilish yo‘nalishidagi zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan ishlash borasidagi kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirish bilan bog‘liq faoliyatni amalga oshirish.

3. Quyidagilar:

Jizzax politexnika institutining tuzilmasi [1-ilovaga](#) muvofiq;

Jizzax politexnika instituti arxitektura va qurilish fakulteti tarkibidagi arxitektor-loyihachilar va quruvchilarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish mintaqaviy markazining tuzilmasi [2-ilovaga](#) muvofiq;

Jizzax politexnika instituti arxitektura va qurilish fakulteti tarkibidagi arxitektor-loyihachilar va quruvchilarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish mintaqaviy markazi faoliyatini tashkil etish, o‘quv-metodik va moddiy-texnika bazasini mustahkamlash chora-tadbirlari rejasi [3-ilovaga](#) muvofiq tasdiqlansin.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vaziriga, zarur hollarda, Jizzax politexnika institutining tuzilmasiga xodimlarning tasdiqlangan cheklangan umumiy soni doirasida o‘zgartirishlar kiritish huquqi berilsin.

4. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi Davlat arxitektura va qurilish qo‘mitasi bilan kelishilgan holda bir oy muddatda:

arxitektor-loyihachilar va quruvchilarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishga qo‘yiladigan davlat talablari, qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarining o‘quv rejalari va dasturlarini tasdiqlasin;

Markazda mashg‘ulotlarni olib borish uchun oliy ta’lim muassasalarining yetakchi professor-o‘qituvchilarini, malakali amaliyotchilar hamda xorijiy mutaxassislarni jalb etish choralarini ko‘rsin.

5. Belgilansinki:

Markaz o‘z faoliyatini o‘zini o‘zi moliyalashtirish asosida amalga oshiradi;

Markazda qayta tayyorlash va malaka oshirish arxitektura va qurilish sohasida ish olib boruvchi tashkilotlarning real va istiqboldagi ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda O‘zbekiston

Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo‘mitasi buyurtmasiga muvofiq to‘lov-shartnoma asosida amalga oshiriladi;

Markazning xodimlariga oliy ta‘lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish mintaqaviy va tarmoq markazlarining tegishli lavozimlari uchun belgilangan mehnatga haq to‘lash miqdorlari va shartlari tatbiq etiladi;

Markaz direktorini lavozimga tayinlash va lavozimdan ozod etish O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus vazirligi bilan kelishilgan holda Jizzax politexnika instituti rektori tomonidan amalga oshiriladi;

Markazning xizmat ko‘rsatish faoliyati yo‘lga qo‘yilgunga qadar uni moliyaviy ta‘minotini amalga oshirish Jizzax politexnika institutining budjetdan tashqari mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi.

Markazda o‘qitish uchun to‘lov narxlari amaldagi tariflar asosida o‘qitish va markazni saqlash xarajatlaridan kelib chiqib Jizzax politexnika instituti tomonidan belgilanadi;

shartnoma asosida o‘qitish uchun olingan va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalardan tushadigan mablag‘lar Markazning moliyaviy manbalari hisoblanadi.

6. O‘zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo‘mitasi Markazda arxitektor-loyihachilar va quruvchilarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish parametrlarini har yili belgilanishini va belgilangan tartibda tasdiqlanishini ta‘minlasin.

7. O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining 4-ilovaga muvofiq ba‘zi qarorlari o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

8. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining birinchi o‘rinbosari — “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ boshqaruvi raisi A.J. Ramatov, Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vaziri I.U. Madjidov zimmasiga va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Ta‘lim, ilm-fan va yoshlar siyosati masalalari axborot-tahlil departamentiga yuklansin.

**O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A. ARIPOV**

Toshkent sh.,  
2017-yil 5-sentabr,  
699-son

Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-sentabrdagi 699-son qaroriga  
1-ILOVA

### **Jizzax politexnika institutining**

#### **TUZILMASI**



Institut (fakultetlar, kafedralar va boshqa tarkibiy bo‘linmalar) xodimlarining cheklangan umumiy soni oliy ta‘lim muassasalari uchun belgilangan normativlarga muvofiq aniqlanadi.

Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-sentabrdagi 699-son qaroriga  
2-ILOVA

### **Jizzax politexnika instituti arxitektura va qurilish fakulteti tarkibidagi arxitektor-loyihachilar va quruvchilarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish mintaqaviy markazining**

#### **TUZILMASI**



Xodimlarning cheklangan soni — 7 kishi, shu jumladan boshqaruv xodimlari — 4 kishi.

Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-sentabrdagi 699-son qaroriga  
3-ILOVA

**Jizzax politexnika instituti arxitektura va qurilish fakulteti tarkibidagi arxitektor-loyihachilar va quruvchilarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish mintaqaviy markazi faoliyatini tashkil etish, o'quv-metodik va moddiy-texnika bazasini mustahkamlash**

**CHORA-TADBIRLARI REJASI**

<b>T/r</b>	<b>Tadbirlar</b>	<b>Bajarish muddatlari</b>	<b>Moliyalashtirish manbalari</b>	<b>Mas'ul ijrochilar</b>
<b>I. Arxitektor-loyihachilar va quruvchilarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kurslarini tashkil etishning normativ-huquqiy bazasini yaratish</b>				
1.	Jizzax politexnika instituti arxitektura va qurilish fakulteti tarkibidagi arxitektor-loyihachilar va quruvchilarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish mintaqaviy markazi to'g'risidagi nizomni ishlab chiqish va tasdiqlash.	2017-yil sentyabr	-	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
2.	Arxitektor-loyihachilar va quruvchilarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishga qo'yiladigan davlat talablarini ishlab chiqish va tasdiqlash.	2017-yil sentyabr	-	Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Jizzax politexnika instituti
3.	Xorijiy tajriba va zamonaviy talablarni hisobga olgan holda arxitektor-loyihachilar va quruvchilarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kurslarining o'quv rejalari va dasturlarini ishlab chiqish va tasdiqlash.	2017-yil oktyabr	-	Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
<b>II. Qayta tayyorlash va malaka oshirish yo'nalishlari bo'yicha zamonaviy o'quv-metodik va axborot-ma'lumotnoma bazasini yaratish va professor-o'qituvchilar tarkibini shakllantirish</b>				
4.	Arxitektor-loyihachilar va quruvchilarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kurslarining o'quv rejalari modullari bo'yicha o'quv-metodik materiallarni, shu jumladan elektron formatda ishlab chiqish.	2017-yil oktyabrdan boshlab doimiy	Jizzax politexnika institutining budjetdan tashqari mablag'lari	Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi, Jizzax politexnika instituti

5.	Jizzax politexnika instituti rasmiy veb-saytida arxitektura va qurilish fakulteti tarkibidagi arxitektor-loyihachilar va quruvchilarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish mintaqaviy markazining veb-sahifasini yaratish, axborot-ta'lim muhitini shakllantirish (shu jumladan, onlayn-elektron o'quv materiallari kutubxonasini tashkil etish).	2018-yil yanvar	-	Jizzax politexnika instituti
6.	Jizzax politexnika instituti arxitektura va qurilish fakulteti tarkibidagi arxitektor-loyihachilar va quruvchilarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish mintaqaviy markazini respublikaning davriy ilmiy va xorijiy jurnallari bilan muntazam ta'minlash.	2017-yil oktyabrdan boshlab doimiy	Jizzax politexnika institutining budgetdan tashqari mablag'lari	Jizzax politexnika instituti
7.	Arxitektor-loyihachilar va quruvchilarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kurslarida o'quv mashg'ulotlarini olib borish uchun Samarqand davlat-arxitektura qurilish instituti va Toshkent arxitektura-qurilish institutidan yetakchi professor-o'qituvchilarini, sohaning malakali amaliyotchilari hamda xorijiy mutaxassislarini jalb etish.	o'quv kurslari rejasiga muvofiq	Buyurtmachilar mablag'lari	Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi, Jizzax politexnika instituti
<b>III. Moddiy-texnika bazani mustahkamlash, zamonaviy axborot-kommunikatsiya uskunalari va o'qitishning texnik vositalari bilan jihozlash</b>				
8.	Arxitektura va qurilish fakulteti tarkibidagi arxitektor-loyihachilar va quruvchilarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish mintaqaviy markazini Jizzax politexnika instituti hududida joylashtirish hamda qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarini tashkil etish uchun ehtiyoj bo'yicha o'quv auditoriyalarini ajratish.	2017-yil sentyabr	-	Jizzax politexnika instituti
9.	Arxitektor-loyihachilar va quruvchilarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kurslarini tashkil etish uchun ajratilgan o'quv auditoriyalarini joriy va mukammal ta'mirlashni belgilangan tartibda amalga oshirish.	2017-yil sentyabr-oktyabr	Jizzax politexnika institutining budgetdan tashqari ishlab topilgan mablag'lari	Jizzax politexnika instituti

10.	Arxitektura va qurilish fakulteti tarkibidagi arxitektor-loyihachilar va quruvchilarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish mintaqaviy markazini asoslangan buyurtmanomalar bo'yicha mebel, inventar, axborot-kommunikatsiya uskunalari hamda o'qitishning texnik vositalari bilan belgilangan tartibda jihozlash, internet tizimiga ulanishini ta'minlash.	2017-yil oktyabr	Buyurtmachilar mablag'lari va Jizzax politexnika institutining budjetdan tashqari mablag'lari	Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi, Jizzax politexnika instituti
-----	---	------------------	---	--

Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-sentabrdagi 699-son qaroriga  
4-ILOVA

**O'zbekiston Respublikasi Hukumatining o'z kuchini yo'qotgan deb e'tirof etilayotgan ba'zi qarorlari**

**RO'YXATI**

1. Vazirlar Mahkamasining "Jizzax politexnika instituti faoliyatini takomillashtirish to'g'risida" 2012-yil 29-iyundagi 187-son qarorining **1-bandi**, shuningdek qarorga **1-ilova**.
2. Vazirlar Mahkamasining "Vazirlar Mahkamasining "Jizzax politexnika instituti faoliyatini takomillashtirish to'g'risida" 2012-yil 29-iyundagi 187-son qaroriga o'zgartirish kiritish haqida" 2014-yil 12-iyundagi 157-son **qarori**.

*(O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 36-son, 963-modda)*